

«TASDIQLANGAN»

“Olmaliq KMK” AJ
Boshqaruv raisi
A.X. Xursanov
«21» noyabr 2022 yil

Ichki Nazorat Tizimi Siyosati

Hujjat “Olmaliq KMK” AJning mulki hisoblanadi.
“Olmaliq KMK” AJning yozma roziligisiz, ushbu hujjatning mazmunidan to'liq
yoki qisman nusxa ko'chirish, nashr qilish yoki korxonada xodimi bo'lmagan
uchinchi shaxslarga berish qat'iy ta'qiqlanadi.
Har qanday o'zgartish va qo'shimchalar asl nusxaga hamda faqat ushbu
hujjatning nazorat qilinadigan nusxalariga kiritiladi.

1- bob Umumiy qoidalar

1.1. Ushbu ichki nazorat tizimi siyosati (keyingi o‘rinlarda Siyosat deb yuritiladi) “Olmaliq KMK” AJ (keyingi o‘rinlarda Jamiyat deb yuritiladi)ning ichki hujjati hisoblanadi va Jamiyat Ustavi, organlari va tarkibiy bo‘linmalari to‘g‘risidagi nizomlari, Jamiyatning korporativ boshqaruv Kodeksi, Tredvey Komissiyasi homiy tashkilotlari Qo‘mitasining qoidalariga muvofiq ishlab chiqilgan (COSO).

1.2. Ushbu siyosat ichki nazorat tizimining (bundan buyon matnda -INT) maqsadlari, ishlash tamoyillari va komponentlarini belgilaydi.

1.3. INT Jamiyatning korporativ boshqaruv tizimining asosiy komponenti hisoblanadi va Jamiyat tomonidan o‘z operatsion maqsadlariga erishish va jarayonli daraja xavf-xatarlarini minimallashtirishga erishishni ta‘minlashga yo‘naltirilgan samarali va oqilona faoliyat yuritishga imkon beruvchi jarayonlar va tartib-tamoyillar, ahlov-odob normalari va harakatlarining yig‘indisi deb belgilanadi.

1.4. Ushbu Siyosat ichki nazoratni Jamiyat Kuzatuv kengashi, Boshqaruvi va xodimlari (barchasi birgalikda – INT subyektlari deb yuritiladi) tomonidan amalga oshiriladigan, Jamiyat tomonidan uchta asosiy sohalarda:

- * operatsion faoliyat samaradorligini oshirish;
- * to‘liq va ishonchli moliyaviy hisobotlarni tayyorlash;
- * O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Jamiyatning ichki xujjatlariga rioya qilishda muayyan maqsadlarga erishishda mulohazali ishonchlilikni ta‘minlashga qaratilgan jarayon sifatida belgilaydi.

Bunda, INTga taalluqli bo‘lgan cheklovlar mavjud bo‘lib, ular ko‘rsatib o‘tilgan sohalardagi yutuqlar ehtimoligiga ta‘sir ko‘rsatadi. Ushbu cheklovlar quyidagi omillar bilan aniqlanadi:

- mulohazalar – INT subyektlari tomonidan qarorlar qabul qilinishida ulannng subyektiv mulohazalari noto‘g‘ri bo‘lishi mumkin;
- tashqi voqea-hodisalar – Jamiyat tomonidan nazorat qilinmaydigan tashqi hodisalarning ta‘siri;
- uzilishlar – xodimning aybi bilan diqqat-e‘tiborsizlik natijasida xatoliklarga yo‘l qo‘yish yoki berilgan ko‘psonli topshiriqlarga e‘tibor qaratish zarurati;
- nazoratni ongli ravishda chetlab o‘tish - shaxsiy manfaatlar olish yoki o‘z faoliyati natijalarini yaxshilash niyatida belgilangan siyosat va tartib-tamoyillarni hohish-istak bilan bekor qilish orqali ichki nazoratni chetlab o‘tish istagi va imkoniyati;
- kelishuv – ikki yoki undan ortiq shaxslarning noqonuniy harakatlarni hamkorlkida solir etishi va ularni yashirish uchun harakatlari.

1.5. Jamiyatda INT yaratishda umumiy maqsadlar, tamoyillar va metodologiyalarni hisobga olgan holda yagona yondashuv joriy etilishi shart. Mazkur Siyosat negizida jarayon darajasida xatarlarni boshqarish Jamiyatda INT faoliyati uchun asos hisoblanadi.

2- bob. Qo‘llanilish sohasi

2.1. Mazkur Siyosat barcha boshqaruv darajalarini, Jamitning barsa ichki jarayonlari va amaliyolarini qamrab oladi va Jamiyatning barcha subyektlari tanishtirilishi va ular tomonidan qo‘llanilishi majburiy hisoblanadi.

3- bob. Ichki Nazorat Tizimining asosiy maqsadlari

3.1. INT asosiy maqsadlari:

1. Jamiyatning rivojlanish strategiyasiga muvofiq operatsion faoliyat samaradorligini oshirish;
2. Aktivlar va ma‘lumotlarning saqlanishini ta‘minlash, resurslardan samarali foydalanish va taqsimlash;

3. Moliyaviy va boshqaruv hisobotlarining to'liqligi va to'g'riligi, shuningdek uni tayyorlash tizimining ishonchligini ta'minlash;
4. O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari va normativ texnik hujjatlari, Jamiyatning ichki hujjatlari talablariga rioya qilish;
5. Samarali nazorat tartib-tamoyillarini joriy etish hisobiga jarayon darajasidagi xatarlar va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yo'qotishlar ehtimolini kamaytirish, boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun ishonchli axborot asosini yaratish;
6. Biznes-jarayonlarning samarali amalga oshirilishini nazorat qilish va Jamiyat faoliyati natijalarini tahlil qilish;
7. Jamiyatning maqbul tashkiliy tuzilmasini yaratishda amaliy yordam ko'rsatish;
8. INT yaxshilash uchun tegishli sohalarni aniqlash va uni yanada takomillashtirish.

4- bob. Ichki nazorat Tizimining asosiy tamoyillari

4.1. Mazkur Siyosat negizida quyidagi INT yaratish tamoyillari yotadi:

1. **Uzuluksiz faoliyat** – INT doimiy va lozim darajada faoliyat yuritishi Jamiyatning faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi har qanday og'ishlarni o'z vaqtida aniqlash va Jamiyatga kelgusida ularni yuzaga kelishining oldini olish imkonini beradi;
2. **INT subyektlarining hisoboti** - INTning har bir jalb etilgan subyekti tomonidan vazifa va majburiyatlarning sifatli va o'z vatiqda bajarilishi boshqa (yuqori turuvchi) sub'ekt tomonidan nazaorat qilinadi;
3. **Majburiyatlarning bo'linishi** – Jamiyat nazoart qilinadigan funksiyalarning takrorlanmasligiga yo'l qo'ymaslikka intiladi, va ushbu funksiyalar Jamiyatning lavozimdagi shaxslar va xodimlari o'rtasida shunday tarzda taqsimlanishi kerakki, bunda aynan bir shaxs muayyan aktivlar bilan operatsiyalarni tasdiqlash, operatsiyalarni hisobga olish, aktivlarning saqlanishini ta'minlash va ularni xatlovdan o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan funksiyalar birlashtirilmasligi zarur;
4. **Operatsiyalarni lozim darajada ma'qullash va tasdiqlash (kelishish)** –Jamiyat barcha moliyaviy-iqtisodiy operatsiyalarni tegishli ichki hujjatlarda aks ettirish orqali Jamiyat organlari va shaxslar tomonidan o'z vakolatlari doirasida tasdiqlash (muvofiqlashtirish) tartibini o'rnatishga intiladi;
5. **INT barcha subyektlarining nazorat funksiyalarining lozim darajada bajarilishi** uchun javobgarligi Jamiyatning ichki xujjatlarida belgilangan, mustahkamlangan bo'lishi va INT barcha subyektlari e'tiboriga havola etilishi shart.
6. **Jamiyatning barcha organlari va tarkibiy bo'linmalari o'rtasida aniq o'zaro hamkorlik asosida ichki nazoratni amalga oshirish;**
7. **Muntazam rivojlantirish va takomillashtirish** – INT shunday yaratilishi zarurki, bunda Jamiyatning faoliyat yuritishi tashqi va ichki shartlarining o'zgarishi va yuzaga keladigan yangi vazifalarga moslashuviga imkoniyat mavjud bo'lishi lozim;
8. **Nazoratning har qanday ahamiyatli kamchiliklari va nozik tomonlari to'g'risida o'z vaqtida xabar berish** – Jamiyatda tegishli ma'lumotlarni har qanday og'ishlarni bartaraf etish to'g'risida qaror qabul qilish vakolatiga ega organlarga va/yoki shaxslarga juda qisqa muddatlarda yetkazish;
9. **Metodologik bazaning birdamligi** – Jamiyat uchun ichki nazorat sohasidagi siyosatlar, reglamentlar va tartib-tamoyillarni qo'llash uchun yagona yondashuv.

5- bob. Ichki Nazorat Tizimi Komponentlari

5.1. COSO modeliga muvofiq, Jamiyat INT quyidagi bir biri bilan o'zaro bog'liq beshta komponentlardan tashkil topgan:

- Nazorat muhiti;
- Xatarlarni baholash;
- Nazoart tartib-tamoyillari;
- Axbort va kommunikatsiyalar;
- Monitoring tartib-tamoyillari.

5.2. Nazorat muhiti INTning barcha komponentlarining samarali ishlashini ta'minlaydi va quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi:

1. Tartiblilik tamoyili va etika qadriyatlariga sodiqlik;
2. Jamiyat Kuzatuv kengashining Jamiyat Boshqaruvidan mustaqil ekanligi va ichki nazoratni rivojlantirish va uning faoliyati yuzasidan nazoratni amalga oshirish;
3. Uchta himoya chiziqlarini nazarda tutuvchi tashkiliy tuzilmani belgilash :

- **Birinchi himoya chizig'i (biznes-funksiya):** xatarlarni baholash va boshqarish, shuningdek samarali INT ta'minlash uchun mas'ul bo'lgan tarkibiy bo'linmalar rahbarlari va xodimlari;
- **Ikkinchi himoya chizig'i (monitoring funksiyasi):** xatarlarni boshqarishning samarali amaliyoti, ichki nazorat, qonunchilikka, ichki hujjatlarga rioya qilish va Jamiyat xodimlari tomonidan vijdotsizlik harakatlari sodir etish holatlarini tekshirishni ta'minlash va monitoring qilish uchun mas'ul bo'lgan tarkibiy bo'linmalar rahbarlari va xodimlari;
- **Uchinchi himoya chizig'i (mustaqil funksiya):** Jamiyat Kuzatuv kengashi va Jamiyat Boshqaruviga boshqaruv tizimi va birinchi va ikkinchi himoya chiziqlarining ishlash samaradorligini tasdiqlash uchun taqdim etadigan ichki audit xizmati.

4. Jamiyatning o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga muvofiq malakali xodimlarni jalb qilish, rivojlantirish va ushlab turishga intilish;
5. INT subyektlariga Jamiyat maqsadlariga erishish jarayonida ichki nazorat sohasida o'z majburiyatlarini bajarish bo'yicha mas'uliyatni taqsimlash.

5.3. Xatarlarni baholash INT bo'yicha ichki hujjatlarga muvofiq amalga oshiriladi va Jamiyatning operatsion maqsadlariga erishishga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan xatarlarni aniqlash, baholash va tahlil qilishni ta'minlash uchun quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi:

1. xatarlarni aniqlash va baholashga imkon beradigan aniq maqsadlarni aniqlash;
2. Jamiyatning maqsadlariga erishishga ta'sir qiluvchi xatarlarni aniqlash va tahlil qilish;
3. xatarlarni baholashda Jamiyat subyektlari tomonidan vijdotsizlik harakatlari sodir etilishi imkoniyatlarini hisobga olish;
4. INT sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan o'zgarishlarni (tashqi muhitda, biznes modelida, rahbarlik qilishda) aniqlash va baholash.

5.4. Nazorat proseduralari-bu Jamiyatning maqsadlari, vazifalari va rejalari bajarilishi ustidan samarali ichki nazoratni ta'minlaydigan siyosatlar va tartib-tamoyillardan iboart bo'lib, quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi:

1. xatarlarni maqbul darajaga tushiradigan nazorat tartib-tamoyillarini ishlab chiqish;
2. maqsadlarga erishish uchun axborot texnologiyalari ustidan umumiy nazoratni ishlab chiqish;
3. kutilayotgan natijalar va bajariladigan tartib-tamoyillarni olish uchun siyosatlar vositachiligida nazorat tartib-tamoyillarini amalga oshirish.

5.5. Jamiyatning axborot-kommunikatsiya tizimi qabul qilinadigan qarorlarga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan voqealar va sharoitlar to'g'risida to'liq va yetarli ma'lumotlarni ta'minlaydi va quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi:

1. ichki nazoratning ishlashini ta'minlash uchun sifatli ma'lumotlarni olish, shakllantirish va ulardan foydalanish;

2. ichki axborot almashinuvi, shu jumladan uning ishlashi uchun zarur bo'lgan ichki nazorat sohasidagi maqsadlar va majburiyatlar to'g'risida ma'lumot;

3. Jamiyatning ichki nazorati faoliyatiga ta'sir ko'rsatadigan masalalar bo'yicha tashqi tomonlar bilan ma'lumot almashish, Jamiyatda qabul qilingan ichki nazorat siyosati va tartib-tamoyillari to'g'risida tushuncha hosil qilish va ularni amalga oshirishni ta'minlash uchun INT subyektlari vertikal va gorizontal aloqalarni o'z ichiga olgan ma'lumotlarni ro'yxatdan o'tkazish va almashish uchun samarali kanallarni boshqarish choralarini ko'radi. Jamiyat o'z ilovalari va tizimlarini ruxsatsiz kirish va ma'lumotlardan foydalanishdan himoya qilish uchun yetarli nazoratni o'rnatish choralarini ko'radi. Ushbu nazoratlarning samaradorligi muntazam ravishda mustaqil tekshiruvdan o'tkaziladi (masalan, axborot xavfsizligini tahlil qilish va buzib kirish uchun test orqali).

5.6. INT monitoring tartib-tamoyillari doimiy monitoring shaklida ham, bir martalik baholash shaklida ham yoki ikkalasining kombinatsiyasida ham amalga oshirilishi mumkin va ular quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi:

1. INTning barcha komponentlari mavjud ekanligi va ularning samarali faoliyat yuritayotganligiga mutlaq ishonch hosil qilish uchun ichki nazorat tizimi komponentlarini doimiy va/yoki davriy baholashni amalga oshirish;

2. INTning kamchiliklarini o'z vaqtida baholash va tuzatishlar kiritish choralarini ko'rish uchun mas'ul bo'lgan subyektlarga, shu jumladan boshqaruv va Kuzatuv Kengashini ushbu kamchiliklar to'g'risida xabardor qilish.

6- bob. Yakuniy qoidalar

6.1 Zaruratga qarab, siyosat qayta ko'rib chiqiladi. Jamiyat Boshqaruvi xatarlarni boshqarish qo'mitasining yordami bilan Jamiyat Kuzatuv Kengashi tomonidan ko'rib chiqish uchun Siyosatga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha takliflar kiritadi.

6.2 Ushbu Siyosat bilan tartibga solinmaydigan masalalar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, Jamiyatning ustavi va boshqa ichki hujjatlari bilan tartibga solinadi.